**IPAK YO‘LI INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI**

Toshkent viloyati, Olmaliq shahri, Oydin MFY, Ehtirom ko‘chasi 4/2 17-B uy
web-site: https://iyiu.uz, Tel. +99893-162-23-06; +99870-613-14-20

**UNIVERSITY OF SILK ROAD INNOVATIONS**

Tashkent region, Olmalik city, Aydin MFY, Ehtirom street
Phone: +99893-162-23-06; +99870-613-14-20
web-site: :https://iyiu.uz

**___ _____2026-yil** **№ _____** **Olmaliq shahri**

**Ipak yo‘li innovatsiyalar universitetining professor-o‘qituvchyilari, xodimlari va talabalari uchun “Odob-axloq kodeksi”ni tasdiqlash to‘g‘risida**

**BUYRUQ**

Ipak yo‘li innovatsiyalar universitetining professor-o‘qituvchilari, xodimlari va talabalari uchun **“Odob-axloq kodeksi”**ni tasdiqlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Quyidagilar: Ipak yo‘li innovatsiyalar universitetining professor-o‘qituvchilari, xodimlari va talabalari uchun odob-axloq qoidalari 1-ilovaga talabalar uchun ichki tartib qoidalar 2-ilovaga muvofiq Universitetning talabalari tomonidan odob-axloq qoidalari normalariga zid keladigan nizoli holat va vaziyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha Odob-axloq komissiyasi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor (I.M.Imankulova), o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor (J.J.Egamov) va xizmat ko‘rsatish bo‘limi (D.D.Xolmatov)ga ushbu buyruq bilan universitetning barcha talabalarini tanishtirish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

**Rektor** **Q.R.Qodirov**

Ipak yo‘li innovatsiyalar universitetining
2026-yil 2-sentabrdagi ____sonli
buyrug‘iga 1-ilova

# IPAK YO‘LI INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI PROFESSOR-O‘QITUVCHYILARI, XODIMLARI VA TALABALARI UCHUN ODOB-AXLOQ QOIDALARI

## I BOB. UMUMIY QOIDALAR

### 1-modda. Ushbu kodeksda tartibga solinadigan munosabatlar

Mazkur Ipak yo‘li innovatsiyalar universitetining (keyingi o‘rinlarda “Universitet” deb yuritiladi) “Odob-axloq qoidalari” (keyingi o‘rinlarda “qoidalar” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-419-son qarori 2016-yil 24-noyabrda qabul qilingan

Senat tomonidan 2016-yil 13-dekabrda ma’qullangan 419-son farmonining 8-bandi, Oliy ta’lim tizimida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ning 6-bandi va boshqa qonunosti hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, universitetining pedagog (professor-o‘qituvchi) va boshqa xodimlari, talabalari) kasbiy xulq-atvorning tamoyillari, normalari, ta’lim jarayonlari va xizmatdagi xulq-atvorning asosiy qoidalari bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

Mazkur qoidalarda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**ta’lim** – ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek, ularga umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

**ta’lim kampusi** – yagona hududda birlashtirilgan o‘quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, labaratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o‘z

ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo‘lgan, o‘quv jarayoni, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta’minlaydigan ta’lim-tarbiya muhiti;

**tarbiya** – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

**manfaatlar to‘qnashuvi** – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

**korrupsiya** – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

**korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish; **professor-o‘qituvchi, xodim, talabaning shaxsiy manfaatdorligi** – universitetning professor-o‘qituvchisi, xodimi, talabalari tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida ularning yaqin qarindoshi yoki professor-o‘qituvchi, xodim, talabaga aloqador bo‘lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari).

**2-modda. Odob-axloq qoidasining maqsad va vazifalari**

**“Odob-axloq kodeksi”ning maqsadlari:**

professor-o‘qituvchi, xodim, talabalarda umumiy madaniyatni rivojlantirish;

universitetning professor- o‘qituvchi, xodim, talabalarining zamonaviy imijini shakllantirish hamda professor-o‘qituvchi, xodim, talabalarda universitet va uning qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash;

universitetda odob-axloq tushunchasini takomillashtirish va universitetning professor-o‘qituvchi, xodim, talabalarning xulq-atvoriga bo‘lgan talablarga oid yagona yondashuvni ishlab chiqishdan iboratdir.

**“Odob-axloq kodeksi”ning vazifalari quyidagilardan iborat:**

huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, professor-o‘qituvchi, xodim, talabalar orasida odob-axloq qoidalarini buzish bilan bog‘liq bo‘lgan nomaqbul xatti-harakat, jumladan, zo‘ravonlik, shafqatsizlik va hayosizlikni targ‘ib va tashviq qilish, shuningdek, turli salbiy illatlar va milliy mentalitetimizga yot bo‘lgan g‘oya va qarashlar, ekstremizm, separatizm, fundamentalizm va “ommaviy madaniyat”ning ta’siri hamda xurujlaridan himoya qilish;

mazkur nomaqbul xatti-harakatlar sodir etilishining sabab va shart- sharoitlarini aniqlash va ularni bartaraf etish;

professor-o‘qituvchi, xodim, talabalarni yuksak huquqiy ong, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalash;

professor-o‘qituvchi, xodim, talabalarda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini doimo hurmat qilish va himoya qilish ko‘nikmasini shakllantirish va yuksaltirish;

professor-o‘qituvchi, xodim, talabalarda vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va ularni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash;

universitetda sog’lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish va rivojlantirish;

universitet professor-o‘qituvchi, xodim, talabalarda tashqi ko‘rinishga oid madaniyatni shakllantirish uchun sharoitlar yaratish;

universitetning davlat va jamiyat hayotidagi hamda ta’lim tizimidagi nufuzi, obro‘-e’tiborini asrab-avaylash va yanada oshirish.

**3-modda Kodeksning amal qilish doirasi** Ushbu qoida universitetning barcha professor-o‘qituvchi, xodim, talabalarga nisbatan tatbiq etiladi.

## 2-BOB. “ODOB-AXLOQ KODEKSI”NING PRINTSIPLARI

**4-modda. Universitet professor-o‘qituvchi, xodim va talabalari xulq-atvorining asosiy printsiplari**

Mazkur qoidalar qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, vatanparvarlik, xizmat va o‘qish burchiga sodiqlik, adolat, halollik va xolislik, samaradorlik va tejamkorlik printsiplariga asoslanadi.

**5-modda. Qonuniylik printsipi**

Universitet professor-o‘qituvchi, xodim va talabalari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga so‘zsiz rioya qiladilar hamda o‘z majburiyatlarini oliy ta’lim muassasasi ichki tartib qoidalari hamda ta’limga oid boshqa me’yoriy hujjatlarga muvofiq bajaradilar.

**6-modda. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi printsipi**

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari Universitetning oliy qadriyati bo‘lib hisoblanadi. Universitet professor-o‘qituvchi, xodim, talabalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishiga yo‘l qo‘ymaydilar va bunday buzilishlar ro‘y bergan hollarda ularni tiklashga ko‘maklashadilar.

**7-modda. Vatanparvarlik, xizmat va o‘qish burchiga sodiqlik printsipi**

Universitet professor-o‘qituvchi, xodim, talabalari o‘z o‘qish faoliyatlarini ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida jamiyatning Universitetga bo‘lgan talabi va ishonchini ifodalagan holda amalga oshiradilar. Professor-o‘qituvchi, xodim, talabalari o‘z burchlarini o‘zaro xayrixohlik, o‘z manfaatlari va mafkuraviy qarashlaridan qat’i nazar lozim darajada bajaradilar.

**8-modda. Adolat, halollik va xolislik printsipi**

Universitet professor-o‘qituvchi, xodim, talabalari o‘z o‘quv jarayonini amalga oshirishda adolatli, halol va xolis bo‘lishlari hamda Universitetga, unga tegishli bo‘lgan saytlar va ijtimoiy tarmoqlarga murojaat qilgan barcha yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ushbu printsip talablari asosida munosabatda bo‘lishlari shart.

**9-modda. Samaradorlik va tejamkorlik printsipi**

Universitet talabalari o‘z bilimlari samaradorligini doimiy ravishda oshirib boradilar. Talabalar o‘z navbatida universitetning mulkiga, o‘zining va boshqa shaxslarning vaqtiga mas’uliyat va ehtiyotkorlik bilan yondashadilar.

## 3-BOB. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

**10. Korrupsiyaning har qanday shakl va ko‘rinishini qabul qilmaslik**

Universitet professor-o‘qituvchi, xodim, talabalari korrupsiyaning har qanday shakli va ko‘rinishini qabul qilmaydilar va uning biror-bir tarzda namoyon bo‘lishiga qarshi hamjihatlikda qonuniy choralarni ko‘radilar.

Professor-o‘qituvchi, xodim, talabalar korrupsiyaga qarshi kurashishlari va uning profilaktikasiga faol ko‘maklashishlari, shuningdek, Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va boshqa korrupsiyaga qarshi kurashishga oid hujjatlar talablarini so‘zsiz bajarishlari, o‘z faoliyatlarini oshkora va adolatli amalga oshirishlari, yuqori axloqiy qadriyatlar va prinsiplarga sodiq qolgan holda qonun ustuvorligiga qat’iy rioya etishlari shart.

## 4-BOB. PROFESSOR-O‘QITUVCHI, XODIM, TALABALAR YURISH-TURISH VA RASMIY MULOQOTIGA OID TALABLAR

**11. Universitetda kiyinish va tashqi ko‘rinishga oid qoidalar**

Professor-o‘qituvchi, xodim, talabalari universitet talablariga mos bo‘lgan kiyimda bo‘lishlari lozim.

Oliy ta‘lim muassasasi talabalari bo‘lgan xotin-qizlar tanani ko‘rsatib turadigan shaffof, yelka, ko‘krak va qorin, tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan hamda haddan ziyod tor kiyimda, shuningdek, yuz qismi identefikatsiya qila olmaydigan darajada to‘silgan holda hamda quloqchinlar, quloq va barmoqlardan tashqari tananing turli qismlariga turli zirak yoki metall buyumlar bilan, tanasining ko‘rinib turadigan qismida pirsing yoki tatuirovkada hamda yorqin pardoz (makiyaj) qilgan holda oliy ta’lim muassasasiga kelishlari mumkin emas.

Oliy ta’lim muassasasi talabasi bo‘lgan erkaklar yarim klassik va klassik uslubdagi

kiyimda, soch va soqoli olingan hamda tartibga keltirilgan holda kelishlari lozim. Bunda, barcha talabalar o‘zlari bilan zaruriy o‘quv vositalarini olib kelishlari shart.

Talabalarning tashqi qiyofasi va kiyimlari ozoda, pokiza bo‘lishi lozim.

**12-modda. Majlis va yig‘inlarda ishtirok etish**

Universitet professor-o‘qituvchi, xodim, talabalari turli tadbirlar (majlislar, tantanali yig‘ilishlar, uchrashuvlar, bayramlar)dagi ishtiroki jarayonida so‘zga chiquvchilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishlari, tadbir davomida tinchlik va osoyishtalikni saqlashlari shart bo‘lib, raislik qiluvchi va moderatorning ruxsatisiz luqma tashlash va so‘zga chiqishlari mumkin emas. Zarurat tug‘ilganda nutqlar o‘rtasida majlislar zalidan chiqib-kirish mumkin.

**13-modda. Binolarda yurish-turish qoidalariga amal qilish**

Binolarga kirish va chiqish joylarida, shuningdek, yo‘laklarda talabalar xodimlarni, erkaklar ayollarni, yoshlar esa kattalarni o‘zlaridan oldin o‘tkazib yuborishlari lozim.

Talabalar Universitet hududida yo‘lning o‘ng tomonidan yurishlari hamda yo‘lak va hollarda mobil aloqa vositalari orqali baland ovozda gaplashmasliklari kerak.

Bir-birlariga duch kelganda salomlashishlari, bunda: talabalar xodimlarga, yoshlar kattalarga birinchi bo‘lib salom berishlari tavsiya etiladi.

Shuningdek, **a)** Universitet hududida: hududga kirishda talabalik ID kartasini taqdim etish, hududni ifloslantirmaslik va chiqindilarni faqat maxsus belgilangan joylarga tashlash;

Professor-o‘qituvchi, xodim, talabalar bir-birlariga duch kelganda, ular bilan salomlashish, o‘quv mashg‘ulotlari vaqtida hududda sababsiz yurmaslik;

Universitet mulki (ko‘char va ko‘chmas mulki, o‘simlik va hayvonot dunyosi va hokazolar)ga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish;

kiyinish (sport kiyimi kiyish ta’qiqlanadi) va muomala madaniyatiga rioya qilish, mas’ul shaxslarning ruxsatisiz turli xil reklama vositalarini osib qo‘ymaslik;

kundalik hayotda tinchlikni saqlash;

narkotik va psixotrop moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlarining iste’mol qilinishi hamda tarqatilishiga qarshi kurashish talab etiladi. (O‘zbekiston Respublikasi

qonunchiligiga koʻra, mazkur holatlar yuzasidan tegishli organlarni oʻz vaqtida xabardor qilmaslik jinoiy javobgarlikka tortish uchun sabab boʻlishi mumkinligi taʼkidlanadi);

**b)** auditoriyada: mobil aloqa vositalarini oʻchirish, oʻquv mashgʻuloti vaqtida oʻrinsiz gaplashish;

jihozlarni asrab-avaylash, partalarga yozmaslik, qogʻoz va boshqa keraksiz buyumlarni qoldirmaslik;

auditoriyalarda ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslik kabi ishlarni bajarish taʼqiqlanadi.

Muhimi, Universitet maʼmuriyati yoʻqolgan va tashlab ketilgan buyumlar uchun javobgar emas.

**v)** umumiy ovqatlanish joylarida: taomlarni olishda navbat tartibiga rioya qilish,

navbatlarda oʻqituvchilar, ayollar va yoshi kattalarga hurmat koʻrsatish, ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik;

umumiy ovqatlanish shaxobchasida belgilangan tarlib-qoidalarga rioya qilish.

**g)** Axborot-resurs markazida (ARM): ARM xodimlari bilan xushmuomalada boʻlish;

kitoblar va jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda boʻlish;

baland ovozda soʻzlashmaslik va atrofdagilarga xalaqit bermaslik;

qogʻoz, saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslik;

kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariga rioya qilish.

**d)** talabalar turar joylarida: shaxsiy buyumlarni oʻz yonida saqlash, turar joy mulkiga zarar yetkazmaslik;

elektr energiyasi, tabiiy gaz ya suvdan tejamkorona (rational) foydalanish;

turar joylarda sanitariya va gigiyenadan foydalanish qoidalariga rioya qilish, talabalar turar joyi "Nizomi" va "Ichki tartib qoidalari"ga qatʼiy rioya qilish.

**e)** sport majmualarida: sport majmuasiga xos boʻlgan kiyim va poyabzallarda kirish;

madaniyatli boʻlish;

sport inventarlariga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda boʻlish;

mashgʻulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirish;

sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilish.

**y)** Madaniyat saroyida va boshqa ommaviy tadbirlar oʻtkaziladigan joylarda: oʻrindiq va boshqa jihozlarga nisbatan madaniy munosabatda boʻlish;

ommaviy tadbirlar vaqtida hushtak chalmaslik, baqirmaslik, tadbir tugashidan oldin sababsiz chiqib ketmaslik;

uhlab oʻtirmaslik, oʻrindiqlarga yotib olmaslik, bir-biri bilan gaplashmaslik, yon atrofdagilarga xalaqit bermaslik.

Shuningdek turli davralarda oʻzining namunaviy xulqi va bilimi bilan Universitet talabasi haqida yuksak ijobiy taassurot hosil qilishga intilish;

doimo komillikka intilish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarni chuqur anglash; Universitet manfaati, uning shaʼni va shonli anʼanalari, obroʻsi hamda nufuzi toʻgʻrisida qaygʻurish, ularni saqlab qolishga jonkuyarlik qilish va ularga hurmat bilan munosabatda boʻlish.

Talabaga quyidagilar qatʼiyan man etiladi:

Universitet hududida chekish;

Oʻqituvchilarga qoʻpollik qilish, mashgʻulotlar vaqtida asossiz gapirish;

Oʻqituvchi bilan boshqalarning bahosini muhokama qilish;

xodimlar va oʻz oʻrtoqlariga nisbatan hurmatsizlik qilish;

mashgʻulotlarni oʻtkazib yuborish yoki kechikib kelish;

mashgʻulotlar vaqtida oʻqituvchining ruxsatisiz auditoriyadan chiqib ketish;

Boshqa talabaning say-harakatlariga qasddan ziyon yetkazish.

Professor-oʻqituvchi, xodim, talabalari tomonidan universitetning ichki tartib-qoidalari buzilgan taqdirda ularga nisbatan turli taʼsir choralari qoʻllanilishi mumkin. Taqdim etilgan taʼlim resurslariga kirishni cheklash, universitet hududi va binosiga kirish, Universitetdan chetlashtirish.

**14-modda. Talabalar turar joyi**

Talabalar turar joyi bu-vaqtinchalik, oʻquv yili davomida boshqa hududlardan kelgan talabalar yashash joyi.

Bugungi kunda yotoqxona Universitet hududida joylashmaganligi sababli, yotoqxonada yashovchi talabalar Universitetga tashrif buyurishda oʻz xavfsizligi uchun

shaxsiy javobgarlikni zimmalariga olishlari lozimligini unutmasliklari kerak.

Agar talaba Universitet yotoqxonasida yashamasa, u holda talaba xonadon yoki uy egasi bilan qonuniy ijara shartnomasini imzolash orqali o‘z xavfsizligi va shaxsiy buyumlarining saqlanishi, shuningdek, turar joyining xavfsizligini ta’minlash uchun shaxsan javobgardir.

Talabalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi normativ huquqiy hujjatlariga muvofiq vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tgan manzilda yashashlari shart.

**MUHIM:** Talabalarning xavfsizligi ularning shaxsiy javobgarligi hisoblanadi, Universitet yotoqxonasidan tashqarida yashagan talabalar xavfsizligiga universitet javobgar emas.

Yotoqxona taqdim etiladi : Birinchi navbatda olis hududlardan kelgan va Olmaliq shahrida doimiy yashash joyiga ega bo‘lmagan 1 -kurs talabalariga.

Bo‘sh joylar qolganidan so‘ng bo‘sh joylar 2- va 3- kurs talabalari o‘rtasida taqsimlanadi.

Talabalar turar joyiga joylashish tartibi: Yotoqxonaga joylashish uchun Talabalar bilan ishlash bo‘limiga ariza topshirish.

Bo‘lim tomonidan so‘ralgan barcha kerakli hujjatlarni taqdim etish.

Talabaga yotoqxona shartnomasida ko‘rsatilgan to‘lov to‘liq amalga oshirilganidan so‘ng yotoqxonadan joy ajratiladi.

Talaba yotoqxonada yashash paytida o‘z hayoti va sog‘lig‘i uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

Talaba yotoqxonada qolish paytida oylik to‘lovni o‘z vaqtida to‘lashga shaxsan mas’ul hisoblanadi.

**15-modda. Professor-o‘qituvchi, xodim, talabalarning rasmiy muloqot me’yorlari**

Universitet professor-o‘qituvchi, xodim, talabalari tashkilot va muassasalar, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolar bilan o‘zaro munosabatga kirishganda quyidagi rasmiy muloqot me’yor va qoidalariga amal qilishlari kerak: O‘z harakatlarini Universitetning manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirish, uning imidjini saqlash va oshirish, talabalar nomi va manfaatlariga ziyon yetkazadigan harakatlarni amalga oshirmaslik,

shuningdek, ular bilan muloqot qilganda hamda ijtimoiy tarmoq va messenjerlardagi yozishmalarida o‘zlarining namunali xulq-atvori bilan Universitet haqida yuksak ijobiy taassurot uyg‘otish;

Universitet va uning professor-o‘qituvchi, xodim, talabalari haqida haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan yoki noto‘g‘ri talqin qilingan va bunga imkon beradigan ma’lumotlarni tarqatmaslik, bunday ma’lumotlar tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, jamoat oldida va ijtimoiy tarmoqlarda shu mavzuda chiqishlar qilmaslik;

**16-modda. Vaqtga rioya qilish**

Professor-o‘qituvchi, xodim, talabalari dars mashg‘ulotlariga belgilangan vaqtdan 5 daqiqa oldin kelishlari hamda intizomga rioya qilishlari shart.

Talaba tegishli ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha akademik taqvim va darslar jadvaliga muvofiq barcha mashg‘ulotlarga qatnashish majburiyatini oladi. Agar uzrli sabablar mavjud bo‘lsa, talaba ma’lumotnomani olgan kundan boshlab uch kun muddatda Talabalar bilan ishlash bo‘limiga taqdim etish majburiyatini oladi.

Talabaning mashg‘ulotga qatnashmasligining har qanday sababi “mashg‘ulotda qatnashmagan”, deb hisoblanadi.

**17-modda. Universitetda g‘ayriaxloqiy va nojo‘ya xatti-harakatlarni sodir etishga yo‘l qo‘yilmaslik**

Professor-o‘qituvchi, xodim, talabalarning o‘qish va mehnat faoliyatiga to‘sqinlik qiladigan quyidagi g‘ayriaxloqiy va nojo‘ya xatti harakatlarni sodir etishi qat’iyan taqiqlanadi:

har qanday huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etish, jumladan, tuhmat qilish, haqoratlash;

giyohvand moddalar, psixotrop, sintetik vosita va turli xildagi tabletkalar hamda ularning analoglari, alkogol va tanraki mahsulotlari, vayp, chilim, elektron sigaretlar va sarxush qiluvchi boshqa vosita hamda moddalarni iste’mol qilish va tarqatish;

tinchlik yoki osoyishtalikka qarshi tajovuz qilish, janjallashish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar o‘ynash;

Universitetga moddiy va uning ishchanlik obro‘siga salbiy ta’sir etuvchi ma’naviy zarar yetkazish;

Professor-oʻqituvchi, xodim, talabalarga jismoniy, maʼnaviy yoki moddiy zarar yetkazish;

talabalar yoki boshqa shaxslarning mulkiga, moddiy qimmatliklariga egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish uchun turli koʻrinishda egallab olish, basharti ushbu holat tegishli asoslar bilan oʻz tasdigʻini topsa; (Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga koʻra, mazkur holatlar yuzasidan tegishli organlarni oʻz vaqtida xabardor qilmaslik jinoiy javobgarlikka tortish uchun sabab boʻlishi mumkinligi taʼkidlanadi);

Universitet atrof-muhitini har qanday koʻrinishda ifloslantirmaslik; Universitet binolari va hovlisida, shuningdek, Universitet binolariga tutashgan hududda spirtli ichimliklar ichish va tamaki yoxud boshqa turdagi mahsulotlarni chekish hamda mast holda boʻlish, tashqi koʻrinishga va mazkur odob-axloq qoidalari bilan belgilangan tartibga zid ravishda soch-soqoli oʻsgan, toʻzgʻigan, sochlarini noodatiy bir yoki bir necha ranglarga boʻyalgan va kiyinish talablariga rioya qilmagan holda kelish;

Universitetga tegishli kompyuterlarda taʼlim muassasasiga tegishli boʻlmagan maʼlumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy maʼlumotlar, behayo surat va filmlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni targʻib qiluvchi, ekstremistik, separatistik va fundamentalistik kayfiyatdagi har qanday materiallarni tayyorlash, koʻrish, saqlash, tarqatish va ularga daʻvat etish;

Oʻquv mashgʻulotlariga hamda professor-oʻqituvchi, xodim, talabalarning osoyishtaligiga xalaqit beradigan xatti harakatlar sodir etish (radio uzatgich, televizor, multimedia va ovoz chiqaruvchi moslamalardan maqsadsiz foydalanish); soxta maʼlumot va hujjatlarni taqdim etish;

Professor-oʻqituvchi, xodim, talabalarning Universitet hujjatlariga qasddan oʻzgartirish kiritish yoki ularni yoʻq qilish (boʻyash, oʻchirish, qoʻshimcha yozuvlar kiritish yoki zarar yetkazish); umumbashariy va milliy qadriyatlarga xos boʻlmagan yoki Universitet, uning xodimlari nufuziga putur yetkazadigan materiallarni Internet tarmogʻi va boshqa ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish yoki ulardan turli nomuvofiq maqsadlarda foydalanish, Universitetning ishchanlik obroʻsi, qadr-qimmati va nufuzini tushiradigan, taʼlim jarayonining maʼnaviy buzilishiga olib keladigan agressiya, odamlarning shaʼni va qadr-qimmatini kamsitadigan, zoʻrlash va vahshiylik, vandalizm, millatlararo nizo

qo‘zg‘atadigan, ta’qiqlangan diniy yo‘nalishdagi, terrorizm, ekstremizm va fundamentalizm, shuningdek, behayo va ishqiy sahnalarni namoyon qiladigan fotosuratlar, video va audioyozuvlardan foydalanish va ularning tarqatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa tashkilotlar, shuningdek Universitet, uning xodimlari hamda talabalari sha’ni va qadr-qimmati hamda ishchanlik obro‘siga salbiy ta’sir qiluvchi haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, asossiz va tekshirilgan dalillarga asoslanmagan turli xil ko‘rinishdagi ma’lumot, fikr, mulohaza ya munosabatlarni internet, ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, boshqa ommaviy axborot manbalarida, tarqatuvchilarda, tashuvchilarda paydo bo‘lishi (oshkor etilishi) mazkur talabaning o‘qishiga to‘sqinlik qiladigan g‘ayriaxloqiy va nojo‘ya xatti-harakat hisoblanadi.

## 5-BOB. TALABALARNING O‘ZARO MUNOSABATLARIGA OID TALABLAR

### 18-modda. Talabalarning o‘zaro munosabatlari

Talabalarning o‘zaro munosabatlari milliy qadriyat va an’analar, yagona jamoaviy muhit, o‘zaro hurmat va e’tibor, do‘stlik, hamjihatlik, halollik va adolat tamoyillariga asoslanishi lozim.

Talabalarning o‘zaro munosabatlarida inson qadr-qimmatiga hurmatsizlik, shaxsiyatni kamsitish, o‘zganing intellektual mulkini o‘zlashtirib olish, qo‘pollik, behayo so‘zlar ishlatish, mushtlashish qat’iyan man etiladi.

Xalqimizning ma’naviy merosini avaylab asrash maqsadida jamoa a’zolari bir-biriga nisbatan hurmatsizlik qilishlari va bexayo so‘zlar ishlatishi qat’iyyan ta’qiqlanadi hamda Universitetda o‘zaro “Siz” deb murojaat qilish odat tusiga kirishi lozim.

Talabalar professor-o‘qituvchi va xodimlarga ismi sharifini aytib murojaat qilishlari shart.

### 19-modda. Talabalarning pedagog xodimlar bilan auditoriyadagi o‘zaro munosabatlari;

Pedagog xodim auditoriyaga kirganida, barcha talabalar o‘rinlaridan turib hurmatlarini bildirgan holda kutib olishlari, so‘ngra pedagog xodim salomlashib,

oʻtirishga ruxsat bergach, oʻz joylarini egallashlari kerak. Pedagog xodim darsini tugatib, auditoriyadan chiqib ketayotganda ham talabala oʻrinlaridan turib, kuzatib qoʻyishlari lozim.

Doʻstona va akademik muhitni saqlab qolish uchun barcha talabalar oʻzlarining ustoz va oʻqituvchilariga, maʼmuriyat xodimlariga va albatta, bir-biriga hurmat koʻrsatishlari kerak.

Auditoriyalarda talabalar oʻqituvchilarining barcha koʻrsatmalariga rioya qilishlari kerak, ham ijobiy - ilm olish, ham salbiy - samarasiz va buzgʻunchi faoliyatni toʻxtatish, masalan, mashgʻulot jarayoni da maxsus koʻrsatmasiz mobil telefonlardan foydalanish, talabaga oʻrnini oʻzgartirish haqida koʻrsatmasiz auditoriyada yurish va hokazo. Agar talabadan auditoriyani tark etish soʻralsa, u mashgʻulotda qatnashmagan deb belgilanadi.

**20. Uyali aloqa vositalaridan foydalanish;**

20.1. Professor-oʻqituvchi, xodim, talabalar oʻz uyali aloqa vositalari (telefonlarda) orqali:

diniy mazmundagi noqonuniy turli xil audio va video materiallarni tarqatish; ekstremizm, radikalizm, zoʻravonlik, shafqatsizlik va pornografiyani targʻib qiluvchi video va fotosuratlarni namoyish qilish;

ekstremizm, radikalizm, zoʻravonlik va vandalizm sahnalarini suratga olish va namoyish qilish orqali taʼlim muassasasi imidjiga zarar yetkazish; boshqa noqonuniy videomateriallarni va fotosuratlarni namoyish qilish va tarqatish TAQIQLANADI.

20.2. Mashgʻulotlar davomida barcha talabalarga quyidagilar:

- uyali aloqa vositalari orqali SMS (MMS) va boshqa turdagi xabarlarni yuborish;
- musiqa tinglash, shu jumladan minigarnituralar orqali;
- suratga va videoga olish;
- uyali aloqa vositalari orqali boshqa xizmatlardan foydalanish TAQIQLANADI.

Uyali aloqa vositalaridan foydalanishga zarur va uzrli holatlarda pedagog xodimning ruxsati bilangina ruxsat etilishi murnkin.

**21-modda. Dars mashgʻulotida ishtirok etish**

Professor-oʻqituvchi, xodim, talabalarning darsga kech qolib kelishlariga yoʻl qoʻyilmaydi.

Pedagog xodim dars mashg‘ulotlariga o‘zining nojo‘ya harakatlari bilan xalaqit berayotgan talabani yuzaga kelgan vaziyat haqida o‘quv ishlari bo‘yicha prorektorni (u o‘z o‘rnida bo‘lmaganda Yoshlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘ini) habardor qilgan holda darsdan chetlashtirishi mumkin.

Agar talaba o‘z kursdoshlari yoki o‘qituvchisiga nisbatan tajovuzkorlik yoki haqorat qilish orqali o‘quv jarayonini jiddiy chalg‘itsa, undan kun davomida Universitetni tark etishi so‘raladi va u butun kun davomida mashg‘ulotda bo‘lmagan, deb belgilanadi. zaruratga ko‘ra, Universitet xodimlari jarayonda yordam berishi mumkin.

Ikkala holatda ham o‘qituvchi hodisa haqida hisobot yozadi va mazkur hisobot talabaning shaxsiy ishiga kiritiladi. Talabaga hisobotning nusxasi beriladi va u uch kunda apellyatsiya kiritishi mumkin. Agar talabadan ikki marta auditoriyani tark etishi so‘ralgan yoki jiddiy intizomiy huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, u Universitetning Odob-axloq komissiyasi yig‘ilishiga taklif etiladi. Talabaning xohishiga ko‘ra, uning vakili va ota-onasi vasiysi ham taklif etiladi.

Professor-o‘qituvchi, xodim, talabalar umumiy o‘quv joylarida, ayniqsa mashg‘ulot va imtihonlar paytida tartibni saqlashlari kerak.

**22-modda. Dars mashg‘ulotidan tashqari vaqtda muloqot qilish**;

professor-o‘qituvchi, xodim, talabalarning dars mashg‘ulotlaridan tashqari vaqtda o‘zaro muloqot qilish zarurati bo‘lsa, u holda muloqot:

maslahat soatlari, mustaqil ish yoki o‘zaro kelishuv bo‘yicha belgilangan vaqtda amalga oshirilishi mumkin;

talaba o‘zi muloqot qilmoqchi bo‘lgan pedagog xodimning lavozimi, ismi, otasining ismi va familiyasini bilishi maqsadga muvofiq;

Talaba oldindan kelishilmagan holda professor-o‘qituvchining huzuriga kelsa, umumiy yoki o‘zaro kelishilgan maslahat soatiga kech qolib kelgan yoki kelmagan bo‘lsa, professoro‘qituvchidan hatto qisqa vaqt suhbatlashishni talab qilishga haqli emas.

Asoslangan jiddiy sabablar (qo‘pollik, tamagirlik, dars sifatining pastligi, pedagog xodimning aybi bilan mashg‘ulotlar o‘tkazilishidagi muntazam uzilish hollarini isbotlovchi dalillar va boshqa hollarda) hamda guruh (kurs)ning yakdil fikri mavjud bo‘lgan holatlarda talabalar pedagog xodimni almashtirish haqida iltimos bilan o‘quv

ishlari boʻyicha birinchi prorektorga murojaat qilishlari mumkin.

23. Tashabbus va faollik talabalarning Universitetda maʼnaviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash, taʼlim sifatini oshirish, innovatsion gʻoyalardan samarali foydalanish, turli xil manfaatli tadbirlar uyushtirish boʻyicha tashabbus va gʻoyalari ragʻbatlantiriladi.

## 6-BOB. TALABALARNING “ODOB-AXLOQ KODEKSI”GA OID MAJBURIYATLARI

**24-modda. Odob-axloqqa oid majburiyatlar**:

Universitetga oʻqishga kirayotgan shaxslar mazkur qoidalar bilan yozma ravishda (imzo chektirib) tanishtiriladilar.

Talabalar: qonun hujjatlari va mazkur qoidalar bilan belgilangan talablarga rioya etishga;

doimo yuksaklikka intilish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi oliyjanob fazilatlarni chuqur anglashga;

odob-axloqqa oid milliy an'analarimiz, urf-odat va qadriyatlarimizni hurmat qilishga;

Universitet obroʻ-eʻtibori va nufuziga dogʻ tushiradigan har qanday harakatlami sodir etishdan oʻzini tiyishga;

Universitet toʻgʻrisidagi axborotlardan uning manfaatlari va ishchanlik obroʻsiga ziyon yetkazish maqsadida foydalanmaslikka;

Universitet mulkiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda boʻlish (koʻchar va koʻchmas mulk, oʻsimlik va hayvonot dunyosiga ya b.), shu jumladan, moddiy texnika vositalaridan toʻgʻri va tejamkorona foydalanishga elektr energiyasi va suvni tejamkorona ishlatishga;

biron-bir noxush voqea yoki hodisa roʻy bersa, u haqda zudlik bilan Universitet rahbariyatiga xabar berishga;

belgilangan cheklovlar va taʼqiqlarga rioya qilish, oʻz yazifalarini ogʻishmay bajarishga, talabalarning shaxsiy va oilaviy muammolarini muhokama qilmaslikka, hech bir shaxs haqida jinsi, irqi, millati, tili, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va lavozimi haqida hamda boshqa xususiyatlaridan qatʻiy nazal asoslanmagan notoʻg ʻri fikr yuritmaslikka va uni kamsitmaslikka;

shuningdek, boshqa shaxslar haqida turli ig‘vo, fitna, g‘iybat va bo‘htonlar uyushtirmaslikka va tarqatmaslikka;

Professor-o‘qituvchi, xodim, talabalar Universitetning ishchanlik obro‘si yoki nufuziga putur yetkazadigan nizoli vaziyatlarga yo‘l qo‘ymaslikka; talabalaming mehnat va o‘quv jarayonidagi sa’y-harakatlariga qasddan ziyon yetkazmaslikka;

Professor-o‘qituvchi, xodim, talabalar xotin-qizlarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakatlar sodir yetmaslikka, shilqimlik qilmaslikka, o‘zaro munosabatlarda umume’tirof etilgan axloq qoidalarini mensimaslikda ifodalanuvchi behayo so‘zlardan foydalanmaslikka;

shaxsiy foydasi hamda o‘zgalar manfaatini ko‘zlab o‘z mavqeini suiste’mol qilmaslikka;

haqiqatni gapirishga, boshqalarni chalg‘itmaslikka;

mutasaddi xodimlarning ruxsatisiz turli reklama vositalarini o‘rnatmaslikka; sog‘lom turmush tarzini yuritish va atrofdagilarning sog‘lig‘ini saqlashga g‘amxo‘rlik qilish, estetik va ekologik madaniyatning oshishiga ko‘maklashishga;

tanqidiy mulohazalarni bildirishga va ob’ektiv qaror qabul qilishga, o‘z xato va kamchiliklarini anglash va bartaraf etishga; moddiy jihatdan yaxshi ta’minlanganligini turli yo‘llar bilan ataylab ko‘z-ko‘z qilmaslikka;

halovat yoki osoyishtalikni buzish, janjallashish, urushish, qimor va shunga o‘xshash boshka o‘yinlar o 'ynash;

professor-o‘qituvchi, xodim, talabalarning Universitet hududida ishqiy va jinsiy munosabatlar bilan shug‘ullanish;

professor-o‘qituvchi, xodim, talabalarning qurol, portlovchi moddalarni noqonuniy olib yurish yoki egalik qilish;

professor-o‘qituvchi, xodim, talabalarning Universitet ma‘muriyati ruxsatisiz universitet hududida tijorat faoliyatini amalga oshirish. oliy ta’lim muassasasi auditoriyalari, binolari va binolarga tutashgan hududda tozalikni saqlashga;

hududni ifloslantirmaslik, chiqindilami joylarda qo‘yilgan maxsus qutilarga tashlashga;

shaxsiy avtomobilni taqiqlangan joyda qoldirmaslik, yo‘l harakati qoidalarini

buzmaslik va mensimaslikka (beparvo boʻlish), shuningdek, transport vositalaridan foydalanishda xavf-xatar yaratmaslikka;

oʻqishdan tashqari vaqtda umumiy qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etishlari, gʻayri ijtimoiy xatti-harakatlarga yoʻl qoʻymaslikka majbur.

**25-modda. “Odob-axloq kodeksi”ga oid qoʻshimcha talablar**

Professor-oʻqituvchi, talabalar: nutq madaniyatini doimiy takomillashtirib borish; talabalarning oʻz-oʻzini boshqarish tizimini faol qoʻllab-quvvatlash va mustahkamlash, ijodiy faoliyatni rivojlantirish va jamoaviy madaniyatni oʻstirish;

pedagog xodim bilan boshqa talabalarning bahosini muhokama qilmaslik;

yolgon gapirish yoki professor-oʻqituvchilarni chalgʻitish bilan bogʻliq har qanday hatti harakatlar qilish;

shaxsiy manfaat va maqsadlarni hal qilish maqsadida professor-oʻqituvchi va boshqa xodimlar, universitet rahbariyati uyiga borish (shu jumladan, tahdid qilish);

yozma ishlarni himoya qilish va reyting nazoratiga doir tartib-qoidani bajarish vaqtida chetdan yordam o lmaslik, oʻzga|at ga yordam koʻrsatmaslik ;

boshqa shaxslar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar yoki yozma ishlarni oʻz nomidan topshirmaslik;

mashgʻulotlarni sababsiz oʻtkazib yubormaslikka va darslarga sababsiz kechikib kelmaslik;

oʻquv mashgʻulotlari vaqtida oliy ta’lim muassasasi hududida behuda yurmaslik; dars mashgʻulotlari oʻtilayotgan vaqtda pedagog ruxsatisiz oliy ta’lim muassasasi hududidan ketib qolmaslik;

Universitet professor-oʻqituvchi, xodim, talabalari oʻzaro va bir-birlariga qoʻpollik qilmaslikka, ular bilan tortishmaslikka, agarda ular nohaq boʻlsa tegishli shaxslarga xabar berishga, bir-birlarining shaxsiy hayotiga oid nooʻrin savollar bilan murojaat qilmaslikka, ularga nisbatan adovat saqlamaslik;

professor-oʻqituvchi, xodim, talabalar bilan nizoli vaziyat yuzaga kelganda oʻz hissiyotlarini jilovlashga va mazkur vaziyatni koʻrib chiqish boʻyicha tegishli boʻlinma va xodimlar (yoshlar masalalari, ma’naviy-ma’rifiy ishlar boʻyicha birinchi prorektor, oʻquv ishlari boʻyicha birinchi prorektor, yoshlar bilan ishlash boʻlimi boshligʻi,

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti, Talabalar Kengashi)ga murojat qilish;

o‘quv jarayonida faol, e’tiborli bo‘lishga va pedagog xodimning ko‘rsatmalariga qat’iy rioya qilish;

dars vaqtida gaplashmaslik hamda dars mashg‘ulotiga taalluqli bo‘lmagan ishlar bilan shug‘ullanmaslik; jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, stol va stullarga yozmaslik;

qog‘oz, saqich va boshqa keraksiz narsalarni auditoriyada qoldirib ketmaslik; mashg‘ulotlar davomida ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslikka, shuningdek, shaxsiy kompyuter va boshqa kommunikatsiya vositalaridan faqat pedagog xodim ruxsati bilan foydalanish;

pedagog xodimga mashg‘ulotlar vaqtida savol yoki iltimos bilan qo‘l ko‘targan holda va ruxsat berilganidan so‘ng murojaat qilish;

umumiy ovqatlanish joylarida taomlarga buyurtma berish va olishda navbat tartibiga hamda belgilangan qoidalarga rioya qilish;

talabalar turar joyi ichki tartib qoidasiga qat‘iy rioya qilish;

jamoat xavfsizlik manfaatlaridan kelib chiqib imkon darajasida oliy ta‘lim muassasasiga  jamoat transportida kelish kabi talablarni bajaradilar.

Shuningdek, mashg‘ulot boshlanishidan 5 daqiqa oldin kelish va tasdiqlangan jadvalga muvofiq mashg‘ulotlarda faol qatnashish;

O‘qituvchi rahbarligidagi mashg‘ulotlarga to‘liq e’tibor qaratish;

uy vazifalarini, jumladan, mustaqil ta’lim uchun topshiriqlarni bajarish;

mobil qurilmalami ovozsiz rejimga o‘tkazish va ulardan faqat o‘qituvchi ko‘rsatmasiga ko‘ra auditoriyada tegishli vazifalarni bajarish uchun foydalanish; Universitet hududi, auditoriyalari va dam olish zonalarini tozalash ozoda saqlash ma’ruzachilar bilan muloqotda bo‘lish va mavzuga oid tegishli savollar berish;

qunt bilan o‘qish va o‘qish davomida xolislikni ta’minlash;

o‘qituvchining bilimidan unumli foydalanish;

O‘z navbatida, talabalar o‘z o‘qituvchirilaridan quyidagilarni kutishi mumkin: barcha mashg‘ulotlarga o‘z vaqtida kelish;

zaruratga koʻra zamonaviy taʼlim usullaridan foydalangan holda mashgʻulotlar oʻtkazish;

talabalarni mavzuni osonroq oʻzlashtirishga yoʻnaltirish;

Universitet standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan va tasdiqlangan dastur boʻyicha mashgʻulot oʻtkazish;

imtihonlarga tayyorlanish;

oraliq va yakuniy topshiriqlarni bajarish sifati boʻyicha talabalarning ishi haqida fikr bildirish.

## VII BOB. “ODOB-AXLOQ KODEKSI”NI BUZGAN TALABALARGA NISBATAN CHORA KO‘RISH TARTIBI

### 26-modda. “Odob-axloq kodeksi”ni buzganlik uchun javobgarlik

Universitet professor-oʻqituvchi, xodim, talabalari tomonidan mazkur qoidalarning buzilishi uni belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga asos boʻlib xizmat qiladi.

Professor-oʻqituvchi, xodim, talabalar qoidalarni buzgan taqdirda, holat Universitet odob-axloq komissiyasi tomonidan oʻrganilib, tegishli choralar koʻriladi.

Professor-oʻqituvchi, xodim, talabalari tomonidan kuch ishlatilib, boshqa shaxslarga tan jarohati yetkazilishida yoki talabaning xatti-harakati sababli 3 va undan ortiq shaxslar guruhlarga boʻlinib, nizoli holatlar yuzaga kelganida Universitet odob-axloq boʻyicha komissiya tomonidan aybdor tomon (tomonlar) talabalar safidan chetlashtirish masalasi koʻrib chiqiladi.

## VIII BOB. ODOB-AXLOQ KOMISSIYASI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

### 27-modda. Odob-axloq komissiyasi

Odob-axloq komissiyasi kamida 5 kishidan iborat tarkibda tuziladi.

Odob-axloq komissiyasi Universitet rektorining koʻrsatmasi asosida, Yoshlar masalalari va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha birinchi prorektor xizmat tekshiruvi natijalariga koʻra va oʻz tashabbusi bilan faoliyat olib boradi. Shuningdek, Universitet xodimlari, talabalari va aloqa kanallari orqali kelib tushgan maʼlumotlar asosida ham oʻz faoliyati doirasidagi masalalarni koʻrib chiqishi mumkin.

Odob-axloq qoidalarini buzgan talabalar Odob-axloq komissiyasi yig‘ilishiga taklif etiladi.

Talabaga konsultatsiya yoki intizomiy sinov muddati berilishi yoki boshqa choralar ko‘rilishi mumkin. Agar talabaga intizomiy sinov muddati berilgan bo‘lsa, u bir oydan so‘ng navbatdagi yig‘ilishga taklif etiladi, undagi ijobiy o‘zgarishlar baholanadi va quyidagilar taklif etiladi

- sinov muddatini bekor qilish yoki boshqa intizomiy jazo choralarini qo‘llash, shu jumladan talabalar safidan chetlashtirish masalasi ko‘rib chiqiladi.

**28-modda. Odob-axloq komissiyasi xulosasi**

Odob-axloq qoidalarining buzilishi holatlarini Komissiya tomonidan ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha intizomiy yoki boshqa tarzdagi qoida buzilishlarining mavjudligi (mavjud emasligi) to‘g‘risida xulosa chiqariladi, Ayni vaqtda Universitet rektoriga ko‘rib chiqish uchun qoidabuzar talabani javobgarlikka tortish to‘g‘risida taklif kiritiladi. Yo‘l qo‘yilgan qoida buzilishining xususiyatini hisobga olgan holda Odob-axloq komissiyasi talabaga nisbatan qoidalaming buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin.

Odob-axloq qoidalariga rioya etmagan professor-o‘qituvchi, xodim, talabalarni intizomiy javobgarlikka tortish bo‘yicha buyruq loyihasi talabalarga xizmat ko‘rsatish bo‘limi tomonidan ishlab chiqiladi.

Professor-o‘qituvchi, xodim, talabalar o‘zlari yo‘l qo‘ygan qoida buzilishi hamda qoida buzilishining ko‘rib chiqilishi jarayoni haqida axborotni olish va o‘zini himoya qilish uchun dalillarni taqdim etish huquqiga egadirlar.

**9-BOB. YAKUNIY QOIDA**

**29-modda. “Odob-axloq kodeksi”ning kuchga kirishi hamda unga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish**

Mazkur qoidalar Universitet rektorining tegishli buyrug‘i bilan tasdiqlanganidan so‘ng kuchga kiradi va unga o‘zgartirish hamda qo‘shimchalar kiritish Universitet rektorining tegishli buyrug‘i asosida amalga oshiriladi.

*Ipak yo‘li innovatsiyalar universitetining*
*2026-yil 2-sentabrgi ____sonli*
*buyrug‘iga 2-ilova*

**Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti talabalari uchun universitetning ichki tartib-qoidalari to‘g‘risida**

**NIZOM**

**Ma’naviy-axloqiy, mafkuraviy sohada olib borayotgan ishlarimizning ta’sirchanligini oshirish, talabalarda Vataniga, xalqiga, oilasiga, milliy urf-odatlar va an’analarga, o‘quv dargohiga, tanlagan kasbiga bo‘lgan muhabbatini shakllantirish, yoshlarga sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, institut ustoz-murabbiylarining muqaddas burchidir.**

Universitetda ta’lim olayotgan barcha talabalar quyidagilarga amal qilishlari zarur.
1. Universitet nizomida belgilangan huquq va majburiyatlarga to‘liq rioya qilish.
2. Universitet va "Talabalar turar joyi”da o‘rnatilgan ichki tartib-qoidalarga qat’iy amal qilish.
3. Fakultetlar, institut, tuman, shahar va Respublika miqyosida talabalarga bag‘ishlangan hamda talabalar ishtirokida o‘tkaziladigan barcha tadbirlarda faol ishtirok yetish.
4. Fakultetlar va "Talabalar turar joyi”da navbatchilik qilish.
5. Universitetga tegishli barcha binolarda chekmaslik.
6. Auditoriya, laboratoriyalarda joylashgan jihozlarga, kitoblarga, asbob-uskunalarga ziyon yetkazmaslik, ozodalikka rioya qilish.
7. Darslarga muntazam qatnashish, o‘quv rejada qayd etilgan fanlarni o‘z vaqtida o‘zlashtirish. O‘rnatilgan muddatlarda reyting sinovlarini, kurs ishlari va loyihalarini topshirish.
8. Darslarga kechikmaslik, sababsiz dars qoldirmaslik.
9. Kontrakt to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirish.
10. Umumiy foydalanish joylaridan tartibli foydalanish.
11. Universitet Oliy ta’lim muassasaligidan kelib chiqqan xolda auditoriya darslariga munosib tashqi ko‘rinish va axloq-odob me’yorlaridan chetga chiqmagan xolda kiyinish, (sport kiyimida, shortida, hijobda va yarim yalang‘och yurmaslik).
12. Universitet tegishli barcha binolarda, Talabalar turar joyida spirtli ichimliklar ichmaslik, qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar o‘ynamaslik, shovqin solmaslik. Tartib buzarlikka yo‘l qo‘ymaslik.
13. Guruhlarga biriktirilgan xonalarning tozaligini saqlash.
14. O‘zaro hurmat va yaxshi muomalada bo‘lish.
15. Talabalikni tasdiqlovchi hujjat olib yurish.
16. Mavjud to‘garaklar, ustaxonalar, klublar va sport seksiyalari faoliyatida ishtirok etish.
17. Universitet rahbarlari auditoriyaga kirganda o‘rnidan turish.
18. Ilmiy izlanishlar uslubini o‘rganish va olib borish.
19. Ijodiy fikrlash va izlanishga o‘rganish, chet tillarini va kompyuter texnikasini mukammal o‘zlashtirish.
20. "Odob-axloq qoidalari”ga to‘liq amal qilish.
Mazkur Nizom talablarini bajarmagan talabalarga nisbatan quyidagi intizomiy choralar ko‘riladi:
A. Ogohlantirish;
B. Hayfsan e’lon qilish;
V. Universitetdan chetlashtirish.
Namunaviy xulq va o‘qishda yuqori ko‘rsatkichlarga yega, jamoat ishlarida faol ishtirok yetuvchi talabalar o‘rnatilgan tartibda moddiy va ma’naviy rag‘batlantiriladi.
Mazkur Nizom barcha fakultetlar faollarining yig‘ilishida,Universitet Ma’naviyat va ma’rifat kengashida muhokama qilingan. Universitet yurist-konsultant bilan kelishilgan.

## MA’NAVIY-AXLOQIY QOIDALAR

1. Har bir talaba o‘zining namunali xulqi, odob-axloqi bilan o‘zini ko‘rsatishi, boshqalarga namuna bo‘lishi lozim.
2. Barcha yaxshi insoniy fazilatlar - xushmuomalalik, kamtarlik, halollik, poklik, vijdonlilik, to‘g‘riso‘zlik, sog‘lom fikrlilik va adolatli bo‘lish talabalik davrining bebaho boyligi bo‘lib qolishi kerak.
3. Milliy qadriyatlarimizni ulug‘lash, ma’rifat, madaniyat, davlat va jamoat arboblarining, ulug‘ ustoz allomalarimizning namunali hayoti tarzlari bilan muntazam tanishib borish talabalarning muhim vazifasidir.
4. Kattalarga hurmatda, ayollar va kichiklarga izzatda bo‘lib, ular bilan salomlashganda quyidagi qoidalarga amal qilmoq lozim:
a) yoshi katta keksa kishilar bilan ko‘rishganda ulardan oldin ko‘rishmoq uchun hamda yigitlar qizlar bilan salomlashganda qizdan avval unga qo‘l uzatmaslik;

b) o‘zingizdan yoshi kichik bo‘lganlarning salomiga aliq olishlik, ular bilan salomlashganda takabburlik qilmaslik;
6. Kursdoshingiz, do‘stlaringizdan birortasining tobi qochib qolganda yoki boshiga musibat tushganda holidan xabar oling, imkoniyatingizga qarab moddiy va ma’naviy yordam bering.
7. Universitet professor-o‘qituvchilari va xodimlarining, kursdoshlaringizni, do‘stlaringizning ishonchini oqlashga intiling, ularning ye’tiboridan chetda qolmaslik uchun harakat qiling.

## TALABALARNING ODOB-AHLOQQA OID MAJBURIYATLARI

a) Universitet hududida:
- hududga kirishda talabalik guvohnomasini ko‘rsatib kirish;
- hududni ifloslantirmaslik va chiqindilarni faqat joylardagi urnalarga tashlash;
- ustozlar bilan duch kelganda salom berish;
- o‘quv mashg‘ulotlari vaqtida hududda sababsiz yurmaslik;
- Universitet mulki (ko‘char va ko‘chmas mulki, o‘simlik va hayvonot dunyosi va hokazolar)ga yehtiyotkorona munosabatda bo‘lish;
- kiyinish va o‘zaro suhbat odoblariga rioya qilish;
- mutasaddilarning ruxsatisiz turli reklama vositalarini osmaslik;
- maishiy tinchlikka rioya qilish;
- narkotik va psixotrop moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlari iste’mol qilinishi hamda tarqatilishiga qarshi kurashish. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuqoridagi holatlar haqida tegishli tashkilotlarga o‘z vaqtida xabar bermaslik javobgarlikka sabab bo‘lishi alohida qayd yetiladi.
b) auditoriyada:
- uyali aloqa vositalarini o‘chirib qo‘yish;
- dars vaqtida gaplashmaslik;
- jihozlarga madaniy munosabatda bo‘lish, partalarga yozmaslik;
- qog‘oz va boshqa keraksiz narsalarni qoldirib ketmaslik;
- ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslik.
v) umumiy ovqatlanish joylarida:
- taomlarni olishda navbat tartibiga rioya qilish;
- tirbandlik holatida ustozlar, ayollar, yoshi kattalarga hurmat ko‘rsatish;
- ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik;
- umumiy ovqatlanish shaxobchasida belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilish.
g) Axborot resurs markazi (ARM)da:
- ARM xodimlari bilan hushmuomalada bo‘lish;
- kitoblar va jihozlarga yehtiyotkorona munosabatda bo‘lish;
- baland ovozda so‘zlashmaslik va atrofdagilarga xalaqit bermaslik;
- qog‘oz, saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslik;
- kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariga rioya qilish.
d) talabalar turar joylari (TTJ)da:
- mavjud jihozlarni asrash, ularga zarar yetkazmaslik;
- elektr-yenergiyasi, gaz va suv resurslaridan tejamkorona (oqilona) foydalanish;
- sanitariya va gigiena xonalaridan foydalanish qoidalariga amal qilish;
- talabalar turar joyi "Nizomi” va "Ichki tartib qoidalari”ga qat’iy rioya qilish.
ye) sport majmualarida:
- sport majmuasiga xos bo‘lgan kiyim va poyabzallarda kirish;
- sport inventarlariga nisbatan madaniy munosabatda bo‘lish;
- mashg‘ulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirish;
- sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilish.
j) madaniyat saroyi va boshqa ommaviy tadbirlar o‘tkazish joylarida:
- o‘rindiq va boshqa jihozlarga nisbatan madaniy munosabatda bo‘lish;

- ommaviy tadbirlar vaqtida hushtak chalmaslik, baqirmaslik, tadbir tugashidan oldin sababsiz chiqib ketmaslik;
- uxlab o‘tirmaslik, o‘rindiqlarga yotib olmaslik, bir-biri bilan gaplashmaslik, yon atrofdagilarga xalaqit bermaslik.

Shuningdek,

- turli davralarda o‘zining namunaviy xulqi va bilimi bilan Universitet haqida yuksak ijobiy taassurot hosil qilishga intilish;
- doimo komillikka intilish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarni chuqur anglash;
- Universitet manfaati, uning sha’ni va shonli an’analari, obro‘si hamda nufuzi to‘g‘risida qayg‘urish, ularni saqlab qolishga jonkuyarlik qilish va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish.

## TALABALAR ODOB-AXLOQIDA MAN ETILADIGAN HOLATLAR

- professor-o‘qituvchilarga qo‘pollik qilish, mashg‘ulotlar vaqtida asossiz gapirish;
- professor-o‘qituvchi bilan boshqalarning bahosini muhokama qilish;
- yolg‘on gapirish, g‘irromlik yoki professor-o‘qituvchilarni chalg‘itish bilan bog‘liq har qanday xatti-harakatlar qilish;
- xodimlar va o‘z o‘rtoqlariga nisbatan hurmatsizlik qilish;
- yozma ishlarni himoya qilish va reyting nazoratiga doir boshqa tartib-taomillarni bajarish vaqtida chetdan yordam olish, o‘zgalarga yordam ko‘rsatish;
- boshqa shaxslar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar yoki yozma ishlarni o‘z nomidan topshirish;
- mashg‘ulotlarni o‘tkazib yuborish yoki kechikib kelish;
- mashg‘ulotlar vaqtida professor-o‘qituvchining ruxsatisiz auditoriyadan chiqib ketish;
- boshqa talabaning sa’y-harakatlariga qasddan ziyon yetkazish;
- moddiy jihatdan yaxshi ta’minlanganligini turli yo‘llar bilan ko‘z-ko‘z qilish qat’iyan man yetiladi.

## TALABALARNING MAJBURIYATLARI

• Universitet Nizomi va Ichki tartib qoidalarga qat’iy rioya qilish;
• Universitet talabasi nomiga dog‘ tushirmaslik;
• Mamlakatimizda ichki va tashqi siyosatini qo‘llab-quvvatlash, uni to‘liq tushunish va vatanparvar bo‘lish;
• Tanlagan mutaxasisligi bo‘yicha nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni muntazam va chuqur yegallab borish;
• O‘zining ma’naviy va ma’rifiy, ilmiy-madaniy saviyasini oshirib borish;
• O‘quv mashg‘ulotlariga qatnashish va o‘quv rejasi hamda dasturlarida ko‘zda tutilgan barcha topshiriqlarni belgilangan muddatlarda bajarish;
• Ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok yetish;
• Talabalar va professor-o‘qituvchilar hamda xizmatchilar bilan o‘zaro xushmuomalada bo‘lish;
• Barcha mashg‘ulotlarga qatnashish va o‘quv jadvalida ko‘zda tutilgan barcha turdagi topshiriqlarni belgilangan muddatda bajarish;
• Universitet binosidagi va "Talabalar turar joyi”dagi mulklarga yehtiyotkorona munosabatda bo‘lish;
• Tashkiliy, ommaviy-siyosiy va tarbiyaviy ishlar ko‘nikmasini yegallash, ilmiy va siyosiy bilimlarni targ‘ib yetishda, shuningdek,Universitetda o‘tkazilayotgan jamoatchilik tadbirlarida qatnashish.

• Darsga qatnamagan holda, yertangi kundan kechiktirmasdan (bevosita yoki guruh raxbari-sardori orqali) fakultet dekanini ogohlantirish va dars qoldirishi sababini asoslovchi hujjatni taqdim yetish;
• Kiyinish madaniyatiga rioya qilish, milliy axloq va urf-odatlarga hurmatli munosabatda bo‘lish;
• O‘zining ilmiy, siyosiy-g‘oyaviy va ma’naviy tafakkurini muntazam oshirish orqali Vatanga sadoqat ruhini namoyon qilish;
• Xorijiy grantlarda qatnashilgan holda fakultet rahbariyatini xabardor qilish va chet elga ketishdan oldin Universitet rahbariyati roziligini olish;
• Universitetda faoliyat ko‘rsatuvchi professor-o‘qituvchilar va boshqa xodimlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;
• O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 2005 yil 7 iyuldagi 58-son, 154-1-son, 19-son va 02/2658-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Kadrlarni davlat grantlari asosida maqsadli tayyorlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq barcha ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha davlat grantlari asosida taxsil olgan Universitet talabalari ta’lim muassasalari, korxona va tashkilotlarda uch yil ishlab berish;
• Fakultetlardagi umumiy foydalanish joylarida sanitariya qoidalariga rioya qilish;
• Dars jarayonida uyali aloqa vositalaridan foydalanmaslik;
• Universitet mulkiga (parta, stol, stul, eshik va devorlarga, o‘quv jihozlariga va h.k.) ziyon yetkazmaslik;
• Universitet ma’muriyati ruxsatisiz asbob-uskunalar va boshqa jihozlarini binodan tashqariga olib chiqib ketmaslik;
• Talabalar turar joyida "Oliy ta’lim muassasalarining talabalar turar joylari faoliyatiga oid me’yoriy hujjatlar turkumi” asosida ta’lim oluvchilar o‘z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishi lozim.
O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 183, 184-1, 184-2, 184-3, 187, 189, 190, 191, 192-moddalariga muvofiq talabalarga quyidagilar ta’qiqlanadi:
• Universitet hududining barcha binolari va tashqi joylari hamda talabalar turar joylarida sigaret chekish hamda turli spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni iste’mol qilish;
• Universitet hududida, jumladan dars o‘tayotgan xonalar va boshqa binolarda diqqat e’tiborni o‘ta jalb qiluvchi kiyimlarda yurish;
• Mayda bezorilik, ya’ni Universitetning barcha joylarida uyatli so‘zlar bilan so‘kinish, xodimlar, talabalar va boshqa fuqarolarga shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarni amalga oshirish;
• Diniy mazmundagi materiallarni qonunga hilof ravishda tarqatish, tayyorlash, saqlash;
• Milliy, irqiy, yetnik yoki diniy adovatni targ‘ib qiluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatish;
• Fohishalik bilan shug‘ullanish;
• Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarda qatnashish;
• Pornografik mazmundagi asarlar, bosma nashrlar, video va ovoz yozuvli materillar, kino-foto materiallar va boshqa mahsulotlarni tayyorlash va tarqatish, reklama qilish, namoyish yetish;

## TALABALARNING O‘ZARO MUNOSABATLARI

1. Talabalarning o‘zaro munosabatlarida - yagona jamoa, o‘zaro hurmat va e’tibor, do‘stlik, hamjihatlik, halollik va adolat tamoyillari amal qilishi lozim.
2. Talabalar munosabatlarida inson qadr-qimmatiga hurmatsizlik qilish, shaxsiyatini kamsitish, o‘zganing intelektual mulkini o‘zlashtirib olish, qo‘pollik, behayo so‘zlar ishlatish, mushtlashish, o‘zgalarga ma’naviy, moddiy yoki jismoniy ziyon yetkazish qat’iyan man etiladi.

**Ipak yo‘li innovasiyalar universiteti**
**rektorining 2026 yil 2-sentyabrdagi**
**__-sonli buyrug‘iga**
**3- ilova**

**IPAK YO‘LI INNOVASIYALAR UNIVERSITETINING**
**ODOB-AXLOQ KOMISSIYASI TO‘G‘RISIDA**
**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

**1.1.** Mazkur Nizom Ipak yo‘li innovasiyalar universitetida (keyingi o‘rinlarda — IYIU) Odob-axloq komissiyasining (keyingi o‘rinlarda — Komissiya) maqsadi, vazifalari, huquq va majburiyatlari, faoliyatini tashkil etish hamda odob-axloq qoidalarini buzish bilan bog‘liq holatlarni ko‘rib chiqish tartibini belgilaydi.

**1.2.** Komissiya IYIUda sog‘lom ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirish, professor-o‘qituvchilar, xodimlar va talabalar o‘rtasida o‘zaro hurmat, halollik, adolat, mas'uliyat va akademik

madaniyat tamoyillarini qaror toptirish maqsadida tashkil etiladi.

**1.3.** Komissiya o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, qonunlari, mehnat va ta'lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, IYIU Ustavi, ichki tartib-qoidalari, Odob-axloq kodeksi, mazkur Nizom hamda rektorning buyruq va topshiriqlariga amal qiladi.

**1.4.** Komissiya IYIUning mustaqil tarkibiy bo‘linmasi hisoblanmaydi va o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi.

**1.5.** Komissiya qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega bo‘lib, ular asosida qonunchilikda belgilangan tartibda IYIU rahbari tomonidan tegishli qaror qabul qilinishi mumkin.

## 2-bob. Komissiyaning asosiy maqsad va vazifalari

**2.1.** Komissiyaning asosiy maqsadi IYIUda odob-axloq, akademik halollik va o‘zaro hurmat tamoyillariga asoslangan sog‘lom ta'lim muhitini ta'minlashdan iborat.

**2.2.** Komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- IYIU Odob-axloq kodeksi talablariga rioya etilishini monitoring qilish;
- odob-axloq qoidalarini buzish holatlarini o‘rganish;
- professor-o‘qituvchilar, xodimlar va talabalarning murojaatlarini ko‘rib chiqish;
- nizoli vaziyatlarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berish;
- odob-axloq qoidalarining buzilishiga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash;
- bunday holatlarning oldini olish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- IYIUda o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik, mas'uliyat va akademik halollik muhitini shakllantirish;
- odob-axloq masalalari bo‘yicha tushuntirish va profilaktik tadbirlarni tashkil etish;
- Komissiya ko‘rib chiqqan masalalar yuzasidan asoslantirilgan xulosalar tayyorlash;
- IYIU rahbariyatiga aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar kiritish.

## 3-bob. Komissiya faoliyatining asosiy prinsiplari

**3.1.** Komissiya o‘z faoliyatini quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiradi:

- qonuniylik;
- adolat va xolislik;
- inson qadr-qimmatini hurmat qilish;
- tenglik;
- aybsizlik prezumpsiyasi;
- oshkoralik va shaffoflik;
- maxfiylik;
- manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik;
- shaxsning o‘zini himoya qilish huquqini ta'minlash;
- dalil va holatlarni har tomonlama o‘rganish.

**3.2.** Komissiya a'zosi ko‘rib chiqilayotgan masalada shaxsiy manfaatdor bo‘lsa yoki taraflardan biri bilan manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lsa, bu haqda Komissiya raisiga ma'lum qilishi va masalani ko‘rib chiqishda ishtirok etmasligi lozim.

## 4-bob. Komissiyaning tarkibi

**4.1.** Komissiya tarkibi IYIU rektorining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

**4.2.** Komissiya tarkibiga quyidagilar kiritilishi mumkin:

- Komissiya raisi;
- Komissiya raisi o‘rinbosari;
- Komissiya kotibi;
- professor-o‘qituvchilar vakillari;
- yuridik xizmat vakili;
- kadrlar bo‘limi vakili;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlarga mas'ul xodim;
- talaba-yoshlar vakili;
- zaruratga ko‘ra boshqa mutaxassislar.

**4.3.** Komissiya raisi Komissiya ishini tashkil etadi, yig‘ilishlarni boshqaradi va Komissiya xulosalarini IYIU rahbariga kiritadi.

**4.4.** Komissiya kotibi:

- murojaatlarni qabul qiladi va ro‘yxatga oladi;
- Komissiya yig‘ilishlarini tashkil etadi;
- yig‘ilish bayonnomasini yuritadi;
- zarur hujjatlarni to‘playdi;
- Komissiya xulosalarini rasmiylashtiradi;
- hujjatlarni belgilangan tartibda saqlaydi.

**4.5.** Komissiya a'zolari o‘z vazifalarini xolis va vijdonan bajarishlari, Komissiya muhokamalarida ma'lum bo‘lgan maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari shart.

## 5-bob. Komissiyaning huquqlari

**5.1.** Komissiya o‘z vazifalarini amalga oshirish maqsadida:

- zarur hujjat va ma'lumotlarni so‘rash;
- manfaatdor shaxslarni Komissiya yig‘ilishiga taklif qilish;
- holatga aloqador shaxslarning tushuntirishlarini olish;
- zaruratga ko‘ra mutaxassislarni jalb qilish;
- odob-axloq qoidalarining buzilishi sabablarini o‘rganish;
- IYIU rahbariyatiga profilaktik va tashkiliy choralar bo‘yicha takliflar kiritish;
- odob-axloq masalalari bo‘yicha tushuntirish ishlarini tashkil etish;
- aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar berish huquqiga ega.

**5.2.** Komissiya qonunchilikda belgilangan tartibda boshqa tashkilotlar va IYIU tarkibiy bo‘linmalaridan zarur ma'lumotlarni so‘rashi mumkin.

## 6-bob. Komissiyaning majburiyatlari

**6.1.** Komissiya:

- har bir murojaatni xolis va har tomonlama o‘rganishi;
- murojaat qilgan shaxsning huquqlarini hurmat qilishi;
- holat bo‘yicha taraflarning tushuntirishlarini eshitishi;
- dalillarni xolis baholashi;
- asossiz ayblovlarga yo‘l qo‘ymasligi;
- shaxsiy ma'lumotlar va maxfiy ma'lumotlarni muhofaza qilishi;
- ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha asoslantirilgan xulosa qabul qilishi;
- Komissiya hujjatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirishi shart.

## 7-bob. Murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi

**7.1.** Odob-axloq qoidalari buzilganligi haqidagi murojaatlar yozma, elektron yoki IYIUda belgilangan boshqa shakllarda qabul qilinishi mumkin.

**7.2.** Murojaatda imkoni boricha:

- murojaat qiluvchining ma'lumotlari;
- voqea sodir bo‘lgan vaqt va joy;
- holatning mazmuni;
- odob-axloq qoidasi buzilgan deb hisoblangan harakat;
- mavjud dalillar;
- guvohlar haqidagi ma'lumotlar ko‘rsatiladi.

**7.3.** Anonim murojaatlar qonunchilik va IYIUning ichki hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

**7.4.** Murojaatni ko‘rib chiqish jarayonida Komissiya:

1. murojaatni ro‘yxatga oladi;
2. masalaning Komissiya vakolatiga kirishini aniqlaydi;

3. zarur hujjat va ma'lumotlarni yig‘adi;
4. taraflarning tushuntirishlarini oladi;
5. zarurat bo‘lsa guvohlarni tinglaydi;
6. mavjud dalillarni o‘rganadi;
7. holatga huquqiy va axloqiy baho beradi;
8. yakuniy xulosani rasmiylashtiradi.

**7.5.** Komissiya shaxsni oldindan aybdor deb hisoblamasligi va uning o‘z fikrini bildirish imkoniyatini ta'minlashi shart.

**7.6.** Komissiya majlisiga chaqirilgan shaxsga ko‘rib chiqilayotgan masalaning mohiyati tushuntiriladi.

**8-bob. Komissiya yig‘ilishini o‘tkazish tartibi**

**8.1.** Komissiya yig‘ilishlari zaruratga ko‘ra o‘tkaziladi.

**8.2.** Yig‘ilish Komissiya a'zolarining kamida yarmidan ko‘pi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

**8.3.** Masalalarni ko‘rib chiqishda Komissiya a'zolari xolislik va maxfiylik talablariga rioya qiladilar.

**8.4.** Komissiya xulosasi yig‘ilishda ishtirok etgan a'zolarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

**8.5.** Ovozlar teng bo‘lib qolgan taqdirda, Komissiya raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

**8.6.** Komissiya yig‘ilishi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

**9-bob. Komissiya xulosasi**

**9.1.** Komissiya xulosasida:

- ko‘rib chiqilgan masalaning mazmuni;
- aniqlangan holatlar;
- o‘rganilgan hujjat va dalillar;
- taraflarning tushuntirishlari;
- Komissiyaning asoslantirilgan fikri;
- aniqlangan odob-axloq qoidasi buzilishi;
- uning sabablari;
- oldini olish yoki bartaraf etish bo‘yicha takliflar

aks ettiriladi.

**9.2.** Komissiya xulosasi IYIU rektoriga taqdim etiladi.

**9.3.** Agar holatda intizomiy yoki boshqa huquqiy chora ko‘rish zarurati mavjud bo‘lsa, tegishli qaror amaldagi qonunchilik va IYIUning ichki hujjatlariga muvofiq qabul qilinadi.

**9.4.** Komissiyaning o‘zi qonunchilikda nazarda tutilmagan jazo chorasini belgilamaydi.

**10-bob. Komissiya a'zolarining javobgarligi**

**10.1.** Komissiya a'zolari o‘z vazifalarini bajarishda:

- xolislik;
- adolat;
- qonuniylik;
- maxfiylik;
- manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik

talablariga rioya etishlari shart.

**10.2.** Komissiya faoliyati davomida olingan shaxsiy yoki maxfiy ma'lumotlarni asossiz ravishda oshkor qilgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

**11-bob. Komissiya faoliyatini tashkil etish va hisobdorligi**

**11.1.** Komissiya o‘z faoliyati natijalari haqida IYIU rektoriga belgilangan tartibda axborot taqdim etadi.

**11.2.** Komissiyaning yillik ish rejasi tasdiqlanishi mumkin.

**11.3.** Komissiya faoliyatiga oid bayonnomalar, xulosalar va boshqa hujjatlar IYIUda belgilangan tartibda saqlanadi.

**11.4.** Komissiya faoliyatida shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va maxfiylik talablariga rioya etiladi.

**12-bob. Yakunlovchi qoidalar**

**12.1.** Mazkur Nizom IYIU rektorining buyrug‘i bilan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**12.2.** Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar IYIU rektorining buyrug‘i bilan kiritiladi.

**12.3.** Mazkur Nizomda nazarda tutilmagan masalalar amaldagi qonunchilik, IYIU Ustavi, Odob-axloq kodeksi va boshqa ichki hujjatlar asosida hal etiladi.

**12.4.** Agar mazkur Nizom normalari bilan amaldagi qonunchilik normalari o‘rtasida tafovut yuzaga kelsa, qonunchilik normalari qo‘llaniladi.

**Kelishildi:**

Yuridik xizmat rahbari: _____ /_____/

Kadrlar bo‘limi boshlig‘i: _____ /_____/

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarga mas'ul: _____ /_____/

Sana: «_» **_____ 20__** yil

**Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti rektorining 2026-yil 2-sentabrdagi __-sonli buyrug‘iga __-ilova**

Ipak yo‘li innovatsiyalar universitetining professor-o‘qituvchilari, xodimlari va talabalari uchun **“Odob-axloq kodeksi”** normalariga zid keladigan nizoli holat va vaziyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaning **TARKIBI**

| № | F.I.Sh. | Lavozimi |
|---|---|---|
| 1. | Q.R.Qodirov | Komissiya raisi, rektor |
| 2. | I.M.Imankulova | Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor-rais o‘rinbosari |
| 3. | S. O‘sarov | A’zo-universitet yuristi |
| 4. | J.J.Egamov | A’zo,O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor |
| 5. | S.B.Ahmedov | A’zo-Ilmiy va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor |
| 6. | D.D.Xolmatov | A’zo-Registrator ofisi boshlig‘i |
| 7. | Sh.N.Mamatov | A’zo-Xodimlar bo‘limi boshlig‘i |
| 8. | S.I.Isayev | A’zo-Kasaba uyushmasi raisi |
| 9. | M.M.Usmanova | A’zo-kafedra mudiri |
| 10. | Sh.A.Xasanova | A’zo-23.11-guruhi talabasi |
| 11. | R.D.Bozorboyeva | A’zo-23.11-guruhi talabasi |
| 12. | X.A.Ismatova | A’zo-22.01-guruhi talabasi |
| 13. | Sh.B.Ro‘ziyeva | A’zo-22.05-guruhi talabasi |
| 14. | D.I.Po‘latova | Kotiba-YoBI,MMBB |

*Izoh:* Ishchi guruh tarkibiga universitetning rahbariyati va tegishli tarkibiy bo’linmalaridan boshqa mutaxassislar jalb etilishi mumkin.